

## VIRTUAL OLAM MANZARASI. IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

**Rustamova Xusniya Ismatillayevna**Samarqand viloyat Pastdarg`om tumanida joylashgan  
47-maktabning Boshlang`ich sinf o`qituvchisi**Annotasiya**

Ushbu maqolada virtual reallik tushunchasining kelib chiqish tarixiga to‘xtalib o‘tilgan. Virtual reallikning inson ahloqiga salbiy va ijobiy ta’siri to‘g‘risida fikr yuritilgan. Internet tarmoqlarining inson ongi va irodasiga yetkazayotgan zarari haqida atroflicha bayon qilingan. Madaniyat bilan bir qatorda ma’naviyatning ham zamonaviy tus olishining asoratlari to‘g‘risida so‘z boradi

**Kalit so‘zlar:** virtual reallik, globallashuv, ommavy madaniyat, ahloq, ijtimoiy ong, internet, , etika..

Qadimgi rim madaniyatida “virtus” so‘zi quyidagi ma’nolarda tushunilgan: bir tomondan, bu ahloqiy qadriyat, yaxshilik (ingliz tilida “virtus” bu yaxshi fazilat degani); boshqa tomondan, bu aktual mavjud, hamda ta’sir etuvchi voqelik; uchinchi tomondan, qandaydir artefakt; to‘rtinchidan, virtuallik ko‘proq hayoliy, faraziy, potensiallik, noreallik kabi tushunchalarga sinonim. [1]

“Zamonamiz qahramonlari” bo‘lgan virtual reallik odamlarining xulq-atvori va ma’naviy dunyoqarashida bo‘shliqlar paydo bo‘lmoqdaki, bu bo‘shliq o‘rnini illatlar to‘ldirmoqda. Biz yoritmoqchi bo‘lganimiz insonning maqsad yo‘lida ishlatishiga bog‘liq bo‘lgan virtuallikning zamonaviy ko‘rinishi bo‘lgan-internet virtual olami insoning ma’naviy va ahloqiy ozuqa omboriga salbiy va ijobiy ta’siridir. Aytib o‘tilgan ushbu gaplardan ko‘rinib turibdiki, internet ham ikki tomonlama-ham yaxshillikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin narsaga aylandi. Bizning bugungi vazifamiz uni yaxshillikka xizmat qildirib, ahloqsizllikka boshlamaslik yo‘llarini ko‘rish, uning inson kamolotiga to‘sinqlik qiladigan zararlaridan chetlatishga harakat qilishdir.

Virtuallikdan foydalanishning ham o‘z qonun qoidalari mavjud bo‘lishini zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Chunki virtuallik bor bo‘lishi ham, aksincha yo‘q bo‘lishi ham mumkindir. Bu borada virtual olam simulyakr, yani aslida yo‘q bo‘lgan narsalarni bor qilib ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Demak virtuallikda mavjud bo‘lgan barcha narsalar ham voqelikda mavjud emasdir. Ehtimoligi yuqori bo‘lgan imkoniyatlar esa voqelikka aylanadi. D. Yumning fikricha, yetarli darajada ishchonchli bo‘lmagan farazli hukmni ehtimollik deb atash mumkin.[2:228]. O‘z fikrini davom etirar ekan faylasuf shunday deydi “etimollik imkoniyatlardan iborat bo‘lib, ularning ko‘pligi ehtimollik holatini u yoki bu darajada voqelikka aylanishini belgilaydi” [2:229].

Virtual olam kishi irodasini mo‘rt qilib uning gumanistik va diniy qarashlariga salbiy tasir ko‘rsatishi yoki aksincha holatlarni yuzaga keltirish mumkin. Virtual olamda tarqalayotgan har bir malumotga o‘zining shaxsiy yondashuvi shakllanmagan, yot g‘oyalarga qarshi o‘zida imunitetni hosil qilmagan insonlar “maxsus kishilar”ning g‘oyalari “to‘ri” ga tushib, ularning ishiga ko‘r-ko‘rona hamkorlik qilishmoqda. Islom dining muqaddas kitobi hisoblangan Quroni karimda shunday marhamat qilinadi:

“Yaxshilik va taqvo yo‘lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo‘lida hamkorlik qilmang” (Moida surasi 2-oyat)[3:256].

Virtual olamdan foydalanishni niyat qilgan shaxsning turli hildagi yot g‘oyalardan, uning ongi, qalbi va ruhini muhofaza qilish choralaridan biri sifatida tasavvuf talimoti falsafasini o‘rganamiz. Tasavvuf insonning ruhiy bo‘shlig‘ini to‘ldirish masalasidir. Bu tomondan u boy va kambag‘al uchun ham, dunyoning boshqa barcha davlatlari uchun ham birdek keraklidir. Chunki inson ruhining qondirilishga yehtiyoji bo‘lgan, to‘ldirishni orzu qilgan bo‘shlig‘i bor va bunday bo‘shliq virtual hayotdagi zamonaviyat “viruslari” bilan to‘lmasligi kerak.

XXI asrda insoniyat kundalik hayotida ommaviy madaniyat tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu amalda madaniyatlarning globallashuvi edi. Global muammolar orasida ko‘zga ko‘rinmaydigan, ko‘rinishidan sodda, hech ham ahamiyatga molik emasdek tuyiladigan, aslida esa inson ongini zabit etadigan, o‘zi bilmagan holda uning mafkurasiga ruhiyatiga ta’sir eta oladigan, munosabatlar tizimini, milliy qadriyatlar, milliy o‘zligiga hamda madaniy tuzilmasiga zarba berib insonda o‘zgacha yot qiyofani namoyon qila oladigan ayrim axborot ta’sirlari mavjud ekanligi sir emas. Har bir xalqning o‘z madaniyati o‘zi uchun qadriyat sanalanar ekan bu o‘rinda bir millat madaniyatining boshqa millat uchun to‘g‘ri kelmasligiga qarab faylasuflar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan qo‘shtirnoq ichida “ommaviy madaniyat” atamasi qo‘llanila boshlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quydagi xulosalarga kelamiz:

**Birinchidan:** inson borlig‘ining bir bo‘lagiga aylanayotgan virtual olamda, uning ahloqiy va manaviy qarashlariga salbiy tasir etuvchi illatlarni shakllantirmaslik zarur. Buning uchun esa virtual olamdagи ahloqsizlikka qarshi shaxslarda imunitetni paydo qilishimiz davr talabiga aylanib bormoqda.

**Ikkinchidan:** virtual reallikni konstant reallikka o‘tish jarayoni keng miqyosda amalga oshayotgan, inson ongi modddiy olamga tasir etayotgan bir davrda virtual olam yordamida ortirilayotgan bilimni qabul qilishda shaxsiy taxlil qilish instinctini shakllantirish inson ongini yot g‘oyalardan saqlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I. Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir –T.: “Manaviyat”, 2015.-128 b
2. Nosov N.A. Foma Akvinskiy i kategoriya virtualnosti\\ Virtualnaya realnost. Filosofskie i psixologicheskie problemy. – M.: Institut povysheniya kvalifikatsii gosudarstvennykh slujashchikh Rossiyskoy akademii gosudarstvennoy slujby pri Prezidente Rossiyskoy Federatsii, 1997.-S. 81
3. Yum D. Traktat o chelovecheskoy prirode// Yum D. Soch. v 2 –x tomax. T. 1. M.:Mysl, 1965. – S.229. 228.